



**FIZIKA, MATEMATIKA VA
MEXANIKANING DOLZARB
MUAMMOLARI
XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMANI
MATERIALLARI**



Buxoro - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**FIZIKA, MATEMATIKA VA MEXANIKANING DOLZARB
MUAMMOLARI**

xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(II qism)

Buxoro, O‘zbekiston, 24-25-may, 2023-yil

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

ТЕЗИСЫ ДОКЛАДОВ

(Часть II)

международной научно-практической конференции

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИКИ, МАТЕМАТИКИ И
МЕХАНИКИ**

Бухара, Узбекистан, 24-25 мая, 2023 год

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

ABSTRACTS

(Part II)

of the international scientific and practical conference

**ACTUAL PROBLEMS OF PHYSICS, MATHEMATICS AND
MECHANICS**

Bukhara, Uzbekistan, May 24-25, 2023

янгиликларидан хабардор бўлиш ва улардан фойдалана олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутди.

Албатта, талабаларнинг таянч компетенцияларини шакллантириш ва уни ривожлантириш жуда кўп вақт талаб қиладиган мураккаб жараён бўлиб, замонавий ахборот технологиялардан ва дастурий воситалардан фойдаланмасдан амалга ошириш жуда ҳам мушкул иш ҳисобланади.

Шундай экан, таянч компетенцияларни эгаллашда ўқитишнинг мақсад ва вазифаларини аниқлаштириш, ўзлаштириш нуқтаи назаридан унинг имкониятларини рўёбга чиқаришни таъминлайдиган методларни ишлаб чиқиш, сифат жиҳатидан касбий компетенцияларни такомиллаштириш, таянч компетенцияларни тезкор ва самарали ўзлаштиришда дастурий воситаларнинг аҳамияти муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Совет Европы: Симпозиум по теме «Ключевые компетенции для Европы»: Док. DECS / SC / Sec. (96) 43. Берн, 1996.
2. Қаҳҳоров С.Қ., Рустамов Ҳ.Ш. Талабаларнинг коммуникатив компетенциясини ривожлантиришда дидактик дастурий воситалардан фойдаланиш. “Педагогик маҳорат”. Илмий-назарий ва методик журнал. -Б. 2023. № 3. 52-58 б

O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Rustamov Hakim., Namozova Nigina

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

rhsh0405@gmail.com

Bugungi globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi mehnat unumdorligini tubdan o'zgartirmoqda. Har qanday o'zgarish va yangilanishlar jamiyat tarqqiyoti va rivojlanish bosqichining istiqbollarini belgilab beruvchi asosiy omildir.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalar asrida axborot kommunikatsion texnologiyalar barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun sifatli va samarali ta'lim olish imkonini bermogda. Axborotlashgan jamiyat va axborot texnologiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, axborot texnologiyalari – bu axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, boshqarish va uzatish vositalari hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan har bir o'quvchi eng yangi va so'ngi texnologiyalarni qo'llay oladigan foydalanuvchiga aylanadilar.

Dunyoning nufuzli va ilmiy-texnik rivojlanishida taraqqiyot cho'qqisiga chiqayotgan mamlakatlarda yaratilayotgan axborot kommunikatsion texnologiyalarning izchil ravishda tarqalishi axborot asrida ta'limning yetakchilik darajasini tasdiqlovchi asosiy dalillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bunday rivojlanish darajasi ma'lum bir mamlakatning hozirgi vaqtdagi qudrati va turmush darajasini belgilab qolmay balki ushbu mamlakatning dunyo bozoridagi o'rnini va rolini, shu bilan birga uning integratsiyalashuvining rivojlanish istiqbollari ko'rsatib beradi. Shunday ekan, har bir mamlakatda axborot kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanish darajasi va ulardan foydalana olish ko'nikmalari nafaqat ularning moddiy resurslar bilan, balki aholi qatlaming yangi bilimlarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ta'lim sohasidagi bunday yutuqlar o'z navbatida ta'lim sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy jamiyatda ta'lim jarayoni va axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'zaro uyg'unlashuvining o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib turadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarida samarali qo'llash ta'lim sifati yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy faktorlardan biri ekanligi, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirilishida axborot kommunikatsion texnologiyalarining roli kun sayin oshib borayotganligini ko'rsatadi.

“Kommunikativ kompetensiya” atamasi haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bu atama so'zlovchining til

resurslaridan kommunikativ jarayonda va muloqotning muayyan maqsadlarida foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya inson taraqqiyoti jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib, uning darajasi shaxsning kamolotga erishishi va o'quv jarayonlarining rolini oshirish natijasi bo'lib, davom etayotgan o'zgarishlarning aksidir. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyani pedagogik nuqtai nazardan o'quvchi(talaba)larning pedagogik muloqot jarayonida o'rganadigan, mustahkamlaydigan va mashq qiladigan lingvistik vositalar to'plami sifatida aniqlash mumkin.[1]

Kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida, axborot, til va madaniyatni tez egallashda axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Har qanday kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- bilimga ega bo'lish;
- kompetensiya mazmun mohiyatini tushunish;
- turli vaziyatlarda kompetensiyaning namoyon bo'lish jarayonlarini his qilish va tushunish;

O'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yordam beradigan axborot kommunikatsion texnologiyalari va vositalari quyidagilardan iborat.

- kompyuter;
- internet tarmog'i;
- trenajyor dasturiy vositalar;
- pedagogik dasturiy vositalar;
- lug'atlar va boshqalar;

Yuqorida keltirilgan vositalardan foydalanganda biz quyidagilarga erishamiz:

- nutq mahorati: o'rta maktab o'quvchilari dialogni avval slayd shaklida ishora bilan takrorlaydilar, so'ngra mustaqil ravishda namoyish etadilar;
- nazorat mahorati: o'rta maktab o'quvchilari topshiriq kartasini tanlaydilar va ushbu dasturning lug'atidan foydalangan holda va o'z tasavvurlarini ko'rsatgan holda

o'zlarining dialoglarini tuzadilar. Vosita sifatida kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi:

-tinglash malakasi: kompyuter texnologiyasi tahlil qilish, tushuntirish, tarjima qilish va hokazolarni talab qiladigan xabarni tinglashdan foydalanadi.[3]

Shunday qilib, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish mumkin. Axborot texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'taradi, balki o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Axborot texnologiyalar asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish barobarida mehnat va ijtimoiy hayotda yordam beradigan nutq, tinglash, yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhorov S.S., Rustamov H.Sh. Talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda didaktik dasturiy vositalardan foydalanish// Pedagogik mahorat. 2023. №3. B.52-59
2. Троицкая Ю. В. Коммуникативная компетенция: демаркация значения // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2020. № 7 (150). С. 112–119.
3. Axmetova A. O'rta umumta'lim o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlanishda axborot texnologiyalari // Universum: psixologiya i obrazovanie : elektron. nauchn. jurn. 2022. 3(93).

OLIV TA'LIM MUASSALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ELEKTRON TA'LIM TIZIMI MISOLIDA

Sadullayev Ibrat Shuxratovich

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

e-mail: i.s.sadullaev@buxdu.uz

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatimizning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonlarining ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz fuqarolarining

Қаххоров С.Қ., Рустамов Х.Ш. Талабаларнинг таянч компетенцияларини ривожлантиришда дастурий воситалардан фойдаланишнинг аҳамияти.....	186
Rustamov H.Sh., Namozova N. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	189
Sadullayev I.Sh. Oliy ta'lim muassalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish elektron ta'lim tizimi misolida.....	192
Samatov S. Styudent taqsimoti va uning ba'zi xossalari.....	196
Jovlijev A.I. Markaziy limit teoremasi va uning tadbiqlari.....	200
Shakadirova N.I. Raqamli ta'lim muhitida "blendend learning" texnologiyasining istiqbollari.....	202
Shermatov J.E., Qodirov A.A., Shukurov E.S. Ekspert tizimi bilimlar bazasini yaratishda ma'lumotlarga ishlov berishning ba'zi usullari haqida.....	205
Shukurov E.S., Qodirov A.A., Shermatov J.E., Raxmonov Sh. Tibbiy ma'lumotlarni sonli bo'lmagan ob'ektlar statistikasi tuzilmasida tasodifiy to'plamlarning o'rni.....	208
Tillabayev B.Sh. Equation of the derivative of the function to solve equations.....	212
Ubaydullayev A.N. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish usullari.....	214
Xoliqov Q.T., Duvlayev K.A., Norqulova M.M. Fizika ta'limida muhandislik dasturlaridan foydalanish masalalari haqida.....	218
Jo'rayeva N.O., Zayniddinova N.O'. Ta'limning mobillashuv sharoitida talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish.....	220